TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Issue 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science

Contents

N.Erdenebayar **B.Jargalsaikhan**	Skiing Tradition of Altai Uriankhai	**4**
E.A.Avazov **Zh.A.Duisheev**	The Andijan Uprising of 1898: Main Issues of Discussion in the Historiography of the Colonial and Soviet Era	**7**
Sh.Kh.Sattarov	Service Diversification And Economic Efficiency	**13**
S.Dj.Saidova	Leadership Competence and Creativity in Managing Challenging Personnel in Higher Education Institutions	**16**
Kh.I.Mamadaliyev	Urban History of the Fergana Valley (1876–1924): A Case Study of Osh	**21**
A.B.Zuftarov	Development of The Service Sector in The Context of the Digital Transformation of Azerbaijan's Economy	**24**
I.K.Usarov **Sh.T.Karimova** **M.Y.Badalbayeva** **A.A.Beknazarov** **Sh.T.Uljayeva**	Enhancing Students' Lexical Competence Through Systematic Use of Authentic Texts: a Task-based and Corpus-supported Methodology	**29**
B.R.Karimov	Challenges in the Development of Turkic Civilization Languages: Perspectives on the Formation of a Common Turkic Language and a Unified Turkic Script System	**32**
N.Juraev	The Philosophy of the Soul and the Heart in Ibn Sina's Thought	**35**
N.Nazarov	Interethnic Relations and Societal Development in Central Asia	**42**
Kh.J.Barotova	The Representation of Nature in the Epic Farhod and Shirin	**46**
Sh.Kh.Buriev	Conservation of Museum Objects and the Preservation of Historical Memory: A Key Factor in Societal Development (The Case of Uzbekistan, 1991–2025)	**50**
K.M.Gulomova	Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students	**53**
D.S.Saparboeva	Organizing Didactic Games in Primary Education	**56**
İ.H.Cəbrayılov	Contemporary Approaches to History Education: Challenges of Learning and Teaching	**58**
O.Musaev	Peculiarities of National Policy Implementation in Multinational Countries	**62**
E.Sultanova **R.Hasanov**	The Organization of Turkic States: A Significant Political Actor on the Global Stage	**66**
O.Musaev **Z.Murodova**	The Historical Development of International Relations and the Processes of Their Transformation	**70**
R.Yarkulov	Mechanisms for Improving Students' Creative Engagement through Digital Technologies: A Case Study of the Logistics Education Program	**74**
R.Hasanov	The Person of Amir Temur and His Martyr Art and State Administration	**79**
R.Khalikova	Amir Temur's Personality and Political Activities as Reflected in Historical Sources	**81**

The Historical Development of International Relations and the Processes of Their Transformation

Musaev Odil (Doctor of Philosophy (DSc), Professor)[1]
odilmusaev1971@gmail.com | ORCID: 0000-0001-7948-0358
Murodova Zebo (bachelor student)[2]
zelishmuratova@gmail.com
[1.] Renaissance Educational University
Tashkent, Uzbekistan
[2.] Webster University in Tashkent
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article analyzes the history of international relations, the stages of its formation and modern global transformation processes from a scientific and theoretical point of view. Also, the evolution of the international system from the point of view of different theoretical schools - realism, liberalism, constructivism and globalism - is revealed.
Keywords: international relations, transformation processes, multipolarity, unipolarity, cold war, global security, liberalism, realism, constructivism, transnational corporations, digital diplomacy

Xalqaro munosabatlar tarixi va uning transformatsiyalashuvi jarayonlari

Musayev Odil Raxmatovich (falsafa fanlari doktori (DSc), professor)[1]
o.musayev@nuu.uz | ORCID: 0000-0001-7948-0358
Murodova Zebo Azizjon qizi (talaba)[2]
zelishmuratova@gmail.com
[1.] Renessans ta'lim universiteti
Toshkent, O'zbekiston
[2.] Webster universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada xalqaro munosabatlar tarixi, uning shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy global transformatsiya jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, turli nazariy maktablar - realizm, liberalizm, konstruktivizm va globalizm nuqtayi nazaridan xalqaro tizim evolyutsiyasi ochib beriladi.
Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, transformatsiya jarayonlari, ko'p qutblilik, bir qutblilik, sovuq urush, global xavfsizlik, liberalizm, realizm, konstruktivizm, transmilliy korporatsiyalar, raqamli diplomatiya

Ma'lumki, xalqaro munosabatlar tarixini o'rganish orqali nafaqat murakkab tarixiy voqealar shohidi bo'lish mumkin, balki mamlakat tashqi siyosati va diplomatiyasi strategiyasini to'g'ri tanlab, uni izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlash mumkin.

Xalqaro munosabatlar tarixi, avvalambor, siyosiy tarixning uzviy qismi bo'lib, turli mamlakatlar, sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadi. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlar tarixi jahon tarixidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillardagi uzviy bog'liqlikni davlat hamda jamoat arboblari faoliyati bilan chambarchas bog'lab tadqiq etadi. O'z navbatida, xalqaro munosabatlar tarixi xilma-xil g'oyalar, turli-tuman xalqlarning mentalitetlari, ularning urf-odatlari, migratsiyasi, jug'rofiy omillarning xalqaro munosabatlarga qanday ta'sir etishini sinchiklab o'rganadi. Jamoaviy mentalitet, jamoaviy psixologiya, demografik omillar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning turli vaziyatlardagi o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalariga xalqaro munosabatlar tarixi alohida urg'u qaratadi.

Agar biz har bir xalqning mentalitetiga e'tibor beradigan bo'lsak, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Anglosakslar, xususan, amerikaliklar uchun ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, pragmatizm xislatlari xos bo'lsa, ruslar uchun esa jamoatchilik, histuyg'ularga erk berish, yangidan-yangi kashfiyotlarga qo'l urish, ba'zida boshlab qo'ygan ishini o'z nihoyasiga yetkazmaslik holatlari tez-tez uchrab turadigan odatiy bir hodisadir. Nemislar uchun esa o'ta tejamkorlik, temir intizom, har bir ishni o'z nihoyasiga yetkazish sari qat'iy iroda va chidamlilik xarakterlidir. Fransuzlar o'ta mulohazakor bo'lib, aql-idrok doirasida ish tutishga urinadilar, mantiqiy izchillik, tahlil qilish va g'oyalarni aniq tasniflash ularga xos xususiyatlardir. O'zbeklar bo'lsa vazminlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, zahmatkashlik, qiziquvchanlik va bolajonlik kabi fazilatlar bilan ajralib turadilar. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida yapon va koreys xalqlarining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, qayta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun "Yapon mo'jizasi" yoki "Koreys mo'jizasi" haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda "Yapon xarakteri", "Koreys tabiati" degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o'rinda, avvalo, mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya'ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida toblangan, kamolga yetgan"[1].

Agar Fransiyaning taniqli siyosatshunosi Raymon Aron o'zining 1962-yilda chop etgan "Millatlar o'rtasidagi urush va tinchlik" asarida siyosiy munosabatlar o'rtasidagi amaliyotlarni tasniflashga uringan bo'lsa, biz nemis faylasufi Maks Veber

asarlarida xalqaro munosabatlarda falsafiy va ijtimoiy g‘oyalarning qanday ahamiyat kasb etganligini anglab olamiz. XX asrning iste’dodli fransuz tarixchisi Fernan Brodel o‘z tadqiqotlarida sivilizatsiyaning xalqaro munosabatlarda tutgan beqiyos o‘rnini ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘ldi.

Xalqaro munosabatlar tarixida bir-biriga qarama-qarshi turgan koalitsiyalar, siyosiy yetakchilar, mutafakkirlar, madaniyat va san’at namoyandalari, adiblar, olimlarning salmoqli o‘rni bor. Sohibqiron Amir Temur, Uyg‘onish davri mutafakkirlari, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix II, Oliver Kromvel, Jorj Vashington, Napoleon, Pyotr I, Alisher Navoiy, Vilyam Shekspir, Servantes, Motsart, Bax, J. Bayron, A. Lamartin, V. Gyugo, Onore de Balzak, Gyote, Geyne, Shiller, A. Pushkin, A. Miskevich, T. Shevchenko kabi davlat arboblari, ma’naviyat yulduzlari, buyuk mutafakkirlar, yozuvchi-yu shoirlar hamda bastakorlarning nomlarini uzoq davom ettirish mumkin. Ularning merosi, xalqaro munosabatlar tarixida amalga oshirgan ishlari, tahlil namunalari kelgusi avlodlar uchun betakror yorqin timsollar sifatida asriy-azaliy, an’analarimizga aylanib qoldi.

Xalqaro munosabatlar tarixidagi muhim omillardan yana biri bu makon va zamon omili bo‘lib, u har bir tarixiy davr o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini bildiradi. Masalan, XIX asr xalqaro munosabatlari uchun, eng avvalo, davlatlararo munosabatlar muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, XX asr xalqaro munosabatlari uchun, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi uchun globalizm, global muammolar, ya’ni fransuzlar tili bilan aytganda, mondializm yoki dunyoviy muammolar alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

II jahon urushidan keyin ko‘pgina demokratik mamlakatlarda u yoki bu turdagi dolzarb masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini aniqlash uchun zondajlar o‘tkazish an’anaga aylanib qoldi. Har bir davlat rahbari turli jabhalarda, ayniqsa, tashqi siyosat masalalarini yurgizishda jamoatchilik fikrini inobatga olishga urinardi. Xalqaro munosabatlar tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 1815–1945-yillar davomida Yevropada yuz bergan urush va tinchlik shartnomalari bu hududni xalqaro munosabatlarning haqiqiy markaziga aylantirib yubordi. “Xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar, – deb yozgan edi Pyer Renuven, – buyuk harbiy krizislar ta’sirida misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi, kishilik jamiyatining tadrijiy rivoji va sivilizatsiyalar shaklini keskin o‘zgartirib yubordi”[2].

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, xalqaro munosabatlar tarixi sivilizatsiyalar tarixining ajralmas qismidir. Shu bilan birga, har bir davlat rahbari o‘z siyosiy rejimini legitimlashtirishga urinadi. XX asr totalitar tuzumlariga mansub bo‘lgan Germaniyadagi natsizm, Italiyadagi fashizm va sobiq SSSRdagi kommunizmni ularning dohiylari moziy bilan bog‘lab, o‘sha o‘tmishdagi voqelikning tadrijiy qismi ekanligiga jamoatchilikni ishontirmoqchi bo‘ldilar. Masalan, Gitler III Reyxni ming yillikning mahsuli, deb baholagan bo‘lsa, Mussolini uchun fashistik Italiya “Qadimgi Rim imperiyasining XX asrdagi ko‘rinishi”, Stalin esa Rossiya tarixini uning faqat chet el bosqinchilariga qarshi olib borilgan mardonavor kurashi tarzida talqin qilgan edi.

Xalqaro munosabatlar tarixida jamoatchilik fikrini, tarixiy o‘tmishini talqin qilishda konstruktiv yondashuv ustun bo‘lgan holatlar ham bir talay. Masalan, lyuksemburglik metallurg Emil Meyrix 1926-yildayoq Yevropada po‘lat ishlab chiqarish kartelini barpo etish tashabbusi bilan chiqqan bo‘lsa, 1952-yilda Yevropada ko‘mir qazish va po‘lat ishlab chiqish birlashmasi vujudga keldi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqining asoschilari yoki otalari bo‘lgan fransuz Jan Monne hamda nemis davlat va jamoat arbobi Konrad Adenauer Yevropadagi integratsiyaviy jarayonlarda Fransiya va Germaniyaning lokomotiv rolini o‘ynashi to‘g‘risidagi tashabbusi bilan chiqdilar.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tarixida ommaviy axborot vositalarining roli tobora oshib bormoqda, ular moddiy va ma’naviy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, biroq o‘zlarining nisbiy mustaqilliklariga ega. Fransuz mutaxassisi Jan Baptist Dyurozelning ta’kidlashicha, insoniyat tarixi dialektik yo‘l bilan ham, doiraviy yoki davriy asosda yoki boshqacha aniq belgilangan yo‘l bilan rivojlanmaydi, balki turli muqobil harakatlar va bunyodkorlik asosida taraqqiy etadi. Bu fikrlar J. Dyurozeldan yuz yil oldin yashagan rus mutafakkiri N.G. Chernishevskiyning “Tarix faqat Neva shohbekatidan iborat emas”[3] degan fikri bilan hamohangdir. Xalqaro munosabatlar o‘z tarixida turli bosqichlarni o‘z boshidan kechirgan bo‘lib, sivilizatsiyalar ana shu bosqichlarning mahsulidir.

Xalqaro munosabatlar rivojida iqtisodiy, texnik, mafkuraviy va kommunikativ omillarning roli tobora oshib borganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, 1950–1990-yillar mobaynida ikki sistema o‘rtasidagi kurash va qarama-qarshiliklar xalqaro munosabatlar tarixida chuqur iz qoldirdi, o‘z navbatida, bu tizimlar o‘rtasidagi qaramaqarshilik “uchinchi dunyo” deb atalmish rivojlanayotgan mamlakatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi.

An’anaviy xalqaro munosabatlarning asosiy subyektlari hukumatlar bo‘lib, ular siyosiy manfaatlarni o‘zlarida aks ettirganlar. Siyosiy manfaatlar xavfsizligini ta’minlash, davlatning qudratini yoki salohiyatini xalqaro munosabatlarda namoyish etish va bu yumushlarning barchasini diplomatik usullar orqali amalga oshirishdan iborat bo‘lgan. Demak, davlat arboblari va ularning hamkorlari xizmat pillapoyalari asosida va o‘z lavozimlariga ko‘ra davlat manfaatlarini xalqaro miqyosda amalga oshirganlar. Bu yumushlarning samaradorligi davlat arboblari, vazirlar va ularning qo‘l ostida ishlovchi xodimlardan har birlarining shaxsiy qobiliyatlari, kasbiy salohiyati, ularning xarakterlari, muvaffaqiyat va kamchiliklari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, ko‘p hollarda an’anaviy xalqaro munosabatlarda zarur axborotga ega bo‘lish, shuningdek, o‘z sohasidagi amaliyot va bilimga ega bo‘lish ham katta ahamiyat kasb etgan.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida esa nafaqat davlatlar, balki boshqa subyektlarning (xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlari va harakatlar, siyosiy partiyalar, xalqlar va h.k.) o‘rni va nufuzi tobora oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Demak, zamonaviy xalqaro munosabatlar ilgarigi singari faqatgina davlatlararo munosabatlar xarakteriga ega emas. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlarda moddiy omillar qatori ma’naviy omillarning roli ham tobora oshib bormoqda. O‘z navbatida, xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar jug‘rofiy muhit, moddiy turmush tarzining shartsharoitlari, jamiyat iqtisodiy strukturasining takomillashuvi va sivilizatsiyalarning xarakteriga katta e’tibor qaratmoqdalar. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu omillar xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi unsurlariga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib,ularning mohiyatini axborot-statistik jadvallar, turli chizmalar yoxud diagrammalar bilangina ochib berib bo‘lmaydi. Aksincha, bu predmetning mohiyati “tarixiy kuch”, ya’ni turli xalqlarning xatti-harakatlari, ularning jamoaviy turmush tarzi, his-tuyg‘ulari va ehtiroslarida mujassamlashgan. Albatta, mazkur omillar xalqlarning temperamentlari, an’analari va fikrlash tizimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning zamirida moddiy manfaatdorlik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, an’anaviy xalqaro munosabatlarning subyektlari sifatida asosan siyosiy elitalar gavdalangan bo‘lsa, endilikda xalqaro munosabatlarning subyektlari tarkibi yangi-yangi ijtimoiy guruhlar hisobidan kengayib bormoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb

etmoqda. Biroq ushbu tendensiya davlat arboblarining xalqaro munosabatlardagi yetakchilik mavqeiga ega ekanligini inkor etmaydi.

XV–XVI asrlarda yuz bergan misli ko‘rilmagan texnikaviy taraqqiyot urush qurollarining ancha takomillashuviga olib keldi, XIX asrga kelib, dunyoning qudratli davlatlari o‘zlaridagi juda ko‘p resurslarni urush vositalariga aylantirib yubordilar. O‘z navbatida, demografik omillar va aholi migratsiyasi masalalari ham qit’alar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni butunlay o‘zgartirib yubordi. Shu bilan birga, XIX asr oxiriga kelib, dunyoni Yevropa va Shimoliy Amerikadagi yetakchi davlatlari tomonidan taqsimlab olish jarayoni ham o‘z nihoyasiga yetdi. Natijada, yetakchi mamlakatlarning ikki harbiy imperialistik blokka bo‘linish jarayoni boshlandi. XX asr boshigacha davom etgan ushbu jarayon, o‘z navbatida I jahon urushini keltirib chiqardi.

Shu tariqa, xalqaro munosabatlar tarixining fazoviy doirasi ancha keng. Bizning maqsadimiz davlatlararo, xalqaro munosabatlarni o‘rganish doirasida ularning transformatsiyasini hamda bu o‘zgarishlarning manbalari sifatida qaysi kuchlar namoyon bo‘lganligini aniqlashdan iborat. Ma’lumki, har qanday taraqqiyotning bosh omili qaramaqarshilik va ziddiyatlarning o‘zaro kurashidan iborat yoki rivojlanish – bu tadrijiy taraqqiyot mahsuli demakdir. Taraqqiyot yoki transformatsiyaning manbaini moddiy yoki ma’naviy omillar tashkil etadi. Xalqaro munosabatlar tarixi negizini iqtisodiy va ijtimoiy tarix, g‘oyalar va institutlar tarixi tashkil etadi. Albatta, bunda jug‘rofiy muhit, moliyaviy va iqtisodiy manfaatlar, qurolli kuchlarning texnikaviy salohiyati, jamiyatning ijtimoiy strukturasi, demografik jarayonlar, diniy qarashlar, xalqlarning kuch-quvvati, temperamenti va ma’naviy salohiyati ham xalqaro munosabatlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy global taraqqiyot sharoitida xalqaro munosabatlar tushunchasi an’anaviy siyosiy-diplomatik doiradan chiqib, murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va axborotiy o‘zaro ta’sirlar tizimiga aylandi. Bu holat mazkur tushunchani faqat empirik jarayon sifatida emas, balki nazariy-paradigmal konstruksiya sifatida tahlil qilishni taqozo etadi.

Xalqaro munosabatlarning mazmun-mohiyatini anglash turli ilmiy maktablar doirasida shakllangan konsepsiyalarni solishtirma tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqotda xalqaro munosabatlar tushunchasi realizm, neorealizm, liberalizm, konstruktivizm va global-iqtisodiy yondashuvlar kesimida kompleks tahlil qilinadi.

Xalqaro munosabatlar insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayondir. Ayniqsa, Westphalia Peacedan keyin davlatlararo munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilib, milliy davlatlar tizimi shakllandi.

Zamonaviy davrda esa globallashuv, raqamlashuv va geosiyosiy raqobat xalqaro munosabatlarning mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirmoqda.

Xalqaro munosabatlar tarixining quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Qadimgi va o‘rta asrlar davri bo‘lib bu davrda xalqaro munosabatlar asosan imperiyalar o‘rtasidagi urushlar, savdo aloqalari, diplomatik missiyalar orqali amalga oshirilgan.

2. Vestfaliya tizimi xalqaro munosabatlarda yangi tamoyillarni belgiladi. Unga binoan davlat suvereniteti, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, davlatlar tengligi g‘oyalari ilgari surilgan. Bu tizim hozirgi xalqaro munosabatlar nazariyasining asosini tashkil etadi.

3. XIX–XX asrlarda shakllangan industrial davr va geosiyosiy raqobat muhitida mustamlakachilik, milliy davlatlar raqobati, harbiy bloklar shakllanishi kuchaydi. Bunga misol qilib NATO, SEATO, Varshava shartnomasi kabi harbiy ittifoqlarni keltirish mumkin.

4. Sovuq urush xalqaro munosabatlarni ikki qutbli tizimga aylantirdi. Unda asosan AQSH va SSSR o‘rtasidagi ideologik qarama-qarshilik, yadroviy muvozanat siyosati vujudga keldi.

5. XX asrning oxirlarida sobiq Ittifoqning tarqalishi natijasida postbipolyar davri tugagach bir qutbli tizim shakllandi, xalqaro tashkilotlar roli oshdi, transmilliy korporatsiyalar, aktorlar paydo bo‘ldi[4].

6. Keyingi davrda xalqaro munosabatlar transformatsiyasining asosiy omillari quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘la boshladi:

- Jahonda globallashuv jarayoni tezlashdi. Anthony Giddens fikricha globallashuv natijasida dunyo o‘zaro bog‘liq tizimga aylandi, iqtisodiy va madaniy integratsiya kuchaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyotda axborot texnologiyalari, raqamli diplomatiya keng rivojlandi. Shu bilan birga ushbu jarayonda kiberxavfsizlik ko‘rinishidagi yangi muammolar vujudga keldi.

Shuningdek, xalqaro munosabatlar tizimida yangi aktorlar (ishtirokchilar) paydo bo‘ldi. Unda United Nations, transmilliy korporatsiyalar va NNTlar xalqaro munosabatlarda muhim o‘rin tuta boshladi. Geosiyosiy kuchlar muvozanatida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, Xitoy, Xindiston, Braziliya, Turkiya, Arab ko‘rfazi mamlakatlari va boshqa davlatlarning yuksalishi ko‘p qutbli tizimga o‘tishni tezlashtirmoqda.

Xalqaro munosabatlar tarixi doimiy o‘zgarish va moslashuv jarayonidir. Vestfaliya tizimidan boshlangan davlatlararo munosabatlar bugungi kunda global, ko‘p qutbli va ko‘p aktorli tizimga aylandi. Uning transformatsiyasi iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida davom etmoqda.

Xalqaro munosabatlar (International Relations) zamonaviy global tizimning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U davlatlar, xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va nodavlat aktorlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborotiy o‘zaro ta’sirlar majmuasini anglatadi. XXI asrda mazkur tushuncha an’anaviy davlatlararo diplomatiya doirasidan chiqib, global boshqaruv, raqamli xavfsizlik va sivilizatsion muloqot kabi yangi yo‘nalishlarni qamrab olmoqda.

Klassik realizm namoyandalari, xususan, Hans Morgenthau, xalqaro munosabatlarni davlatlar o‘rtasidagi kuchlar kurashi sifatida talqin qiladi. Morgentau fikricha[5], xalqaro siyosat inson tabiatining hokimiyatga intilish xususiyati bilan bog‘liq. Uning asosiy tezislari: milliy manfaat – markaziy kategoriya, xalqaro tizim anarxik muhit, kuch muvozanati barqarorlik kafolati. Bu yondashuv xalqaro munosabatlarning realistik-ontologik asosini belgilab beradi.

Neorealizm namoyondalaridan biri bo‘lgan Kenneth Waltz[6], xalqaro tizim strukturasi sifatida xalqaro munosabatlarni tizimli tahlil qilishni taklif etdi. Uningcha, xalqaro munosabatlarda davlatlarning xatti-harakati ularning ichki xususiyatlaridan ko‘ra tizimdagi kuch taqsimoti bilan belgilanadi. Uning fikricha, xalqaro tizim anarxik, davlatlar funksional jihatdan o‘xshash, barqarorlik kuchlar muvozanatiga bog‘liq. Neorealizm strukturalizmga yaqin bo‘lib, xalqaro munosabatlarning institutsional va strategik asoslarini ochib beradi.

Liberalizm va institutsionalizm tarafdorlaridan Robert Keohane[7] xalqaro munosabatlarda hamkorlik va institutlarning rolini asoslab berdi. Liberal yondashuvga ko‘ra, davlatlar o‘zaro bog‘liqlik sharoitida hamkorlik qilish orqali manfaatlarini amalga oshiradi. Uning asosiy jihatlari xalqaro institutlar kelishuvni ta’minlaydi, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik tinchlikni rag‘batlantiradi, ratsional tanlov nazariyasi muhim ahamiyatga ega.

Konstruktivizm g‘oyasi muallifi Alexander Wendt[8] xalqaro munosabatlarni ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qildi. U xalqaro anarxiya obyektiv emas, balki davlatlar o‘rtasidagi

ijtimoiy munosabatlar natijasi ekanini ta’kidladi. Unga ko‘ra identiklik siyosatni belgilaydi, normalar xalqaro xulq-atvorga ta’sir qiladi, xalqaro tizim ijtimoiy ravishda shakllanadi.

Mir-sistema nazariyasiga ko‘ra Immanuel Wallerstein[9] xalqaro munosabatlarni global iqtisodiy iyerarxiya nuqtayi nazaridan tahlil qildi. U dunyo iqtisodiy tizimini markaz, yarim periferiya va periferiyaga bo‘lib o‘rgandi. Bu yondashuv xalqaro munosabatlardagi iqtisodiy tengsizlik va qaramlik muammosini yoritadi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Markaziy Osiyoda va xalqaro munosabatlarda “ochiqlik”, “qo‘shnichilik” va “muloqot” tamoyillari samarali ekanligini malakat tashqi siyosatida nazariy va amaliy jihatdan asosladi hamda o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash konsepsiyasini ilgari surdi[10].

Zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasi turli paradigmalar integratsiyasiga asoslanadi. Realizm kuch omillarini, liberalizm hamkorlikni, konstruktivizm g‘oyalarni, mir-sistema nazariyasi esa iqtisodiy strukturani ochib beradi. Kompleks tahlil mazkur yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

References

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – B. 27.
2. Renovin P. Histoire des relations internationales I du Moyen age a 1789. – P., 1994. – P. XXI.
3. Nikolay Gavrilovich Chernышevskiy sitatы. Istochnik: https://ru.citaty.net/avtory/nikolai-gavrilovich-chernyshevskii/
4. Dugin A. Chetvertaya politicheskaya teoriya. — Moskva, 2012. –S. 78-84.
5. Morgentau G. Politika mejdu natsiyami. — Nyu-York, 1948. –S. 26.
6. Waltz, K. N. (1979). Theory of international politics. Addison-Wesley.
7. Keohane, R. O. (1984). After hegemony. Princeton University Press.
8. Wendt, A. (1999). Social theory of international politics. Cambridge University Press.